

**TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA DIDAKTIK ASARLARNING TIPOLOGIK TAHLILI****Turdiyev Sog'lombek Rahmat o'g'li***Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim  
fakulteti talabasi**e mail:turdiyevsoglombek@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, madaniyati, rivojlanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Turkiy xalqlar asarlarida didaktika. Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlarining tipologik tahlillari va didaktik ahamiyati yoritib o'tilgan

**Kalit so'zlar:** "Hibat ul-haqoyiq", didaktika, tipologik tahlil nazariyasi, "Qutadg'u bilig", V.Jirmunskiy, A.Skaftimov, "Qobusnoma"

Turkiy til va adabiyoti juda boy va jozibali tillardan hisoblanadi. Ushbu tilda yaratilgan nodir asarlar borki, bugungi kun uchun ham o'z shakl va mazmuni bilan adabiyot durdonasi sifatida dunyo e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa ulardagi ta'limiy-didaktik qarashlar bugungi kunda ham dolzarbligi jihatidan ham alohida ahamiyatli. Shuning uchun ham asarlarni to'laligicha o'rganish, ularga to'g'ri yondashish zarur. Ularning didaktik ahamiyatini o'rganishda mazmun-mohiyat bilan birga tipologik tahliliga ham e'tibor qaratish lozim.

Bu yo'nalishda adabiy hodisalarni to'laligicha tipologik o'rganish masalasi va adabiyot rivojlanishining qonuniyatlarini ochish V.Jirmunskiy, A.Skaftimov, B.Putilov kabi olimlarning tadqiqotlarida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur asoslab berildi. Aytish mumkinki, bu olimlar adabiy asarlarni tipologik tahlil etishning haqiqiy asoschilaridir. Ularning qiyosiy o'rganish tamoyili adabiyot rivojlanishining qonuniyatlarini ochish masalalari bilan chambarchas bog'langan. Qiyosiy-tipologik tahlilning bir ko'rinishi – spiralsimon tipologik aloqalar u yoki bu adabiy hodisaning turli xalqlar adabiyotida yuzaga kelishi va rivojlanishini nazarda tutadi. Quyida biz turkey adabiyotdagi ba'zi didaktik asarlarning qiyosiy tahliliga to'xtalishni joiz deb bildik. Shuni aytish kerakki, nomlaridan hamma narsa ayondek tuyulgan bu asarlarda dur-u javohirlarga teng bo'lgan so'z sarchashmalarini topish mumkin.

"Qutadg'u bilig" – XI asr so'z san'atining nodir namunasi bo'lib, unda o'z davrining ilg'or ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan. Asarda turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma'lumot berilgan. Asarning nomi "Baxt-saodatga yo'llovchi bilim" degan ma'noni bildiradi. Asar qoraxoniylar hukmdori Tabg'ach Bug'roxonga bag'ishlangan bo'lib, aruzning mutaqorib bahrida yozilgan. "Qutadg'u bilig" 73 bob, 6520 baytdan iborat. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari XII asrga oid bo'lib, o'zbek adabiyoti tarixida yana bir didaktik asarlardan biri hisoblanadi. Bu asarda adib ma'naviy-axloqiy qarashlarini bayon etib, didaktik adabiyotni boyitdi. Asarning nomi





“Haqiqatlar sovg‘asi” degan ma‘noni bildiradi. Bu asar ham aruz vaznida yozilgan bo‘lib, 14 bob, 256 baytni tashkil etadi. Kaykovusning “Qobusnoma” asari XI asrda yaratilgan. Bu asar O‘rta asr Sharq mintaqasi tafakkurida falsafiy-axloqiy g‘oyalarni targ‘ib etuvchi mashhur didaktik asar hisoblanadi. “Qobusnoma” 44 bobdan iborat bo‘lib, Kaykovus bu asarni o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlaydi. Bu uchala asar pandnoma bo‘lib, yaratilgan asri ham bir-biriga yaqin. “Qutadg‘u bilig”da:

“Yoving bir bo‘lsa-da, mingdir zarari,  
Ming do‘sting bo‘lsa-chi, birga teng bari.  
Kishi dushmanidan ko‘rmadi nafni,

Agar ko‘rgan esa, u mard sarvari”- degan misralar O‘gdulmish tilidan bayon qilinadi. Deyiladiki: o‘rtoqlarning ko‘pi yaxshi. Ularni ko‘paytirish yaxshi xislat. Notanish kishi yov emas. Yovi bor kishida sevinch bo‘lmaydi. Yovning soni kam bo‘lsa ham zarari ko‘p. Ezgu kishilarning birortasi yovdan foyda, naf keladi deb aytgan emas. Bu o‘rinda adibning badiiy mahoratini ham sezish qiyin emas. “Yov” va “do‘st”, “bir” va “ming” so‘zlari tazod san‘atini yuzaga keltirgan. “Do‘stlik, yaqinlik ikki xil bo‘ladi: biri ezgu niyatlar tufayli yuzaga kelsa, boshqa bir do‘stlik shaxsiy manfaatlarni deb bo‘ladi. O‘z nafini o‘ylab qilingan do‘stlikka juda tez soya tushadi. Do‘st kishining shunday hikmatli gapi mavjud: “Do‘stni foyda-zarar

ichida sinash kerak. Sen do‘st bo‘lish uchun oyoq qo‘ysang, o‘zingni mahkam tut. Do‘stning haqiqiy dilini bilmoqchi bo‘lsang, sinash uchun unga tilingda g‘azab qilib yoki qovog‘ingni solib ko‘r. Do‘stingning senga qanchalik muhabbati borligini bilmoqchi bo‘lsang, uning eng yaxshi ko‘rgan narsasini so‘ra. Shunda hamma narsa ayon bo‘ladi”. Yusuf Xos Hojib asarida Aql ramzi – O‘gdulmish orqali do‘stlik mavzusini ochib beradi. Asardagi O‘gdulmish obrazi XX asr adabiyotshunosligidagi romantik obrazlar sirasiga kiradi, desak mubolag‘a bo‘lmas. Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq” asarida:

Mingta do‘sting bo‘lsa aslo ko‘p ko‘rma,

Bitta dushman bo‘lsa uni oz, dema”, – deb ta‘kidlaydi. Adib do‘stlik haqidagi ibratli pandlarni yozadi. Bunda adibning xalq og‘zaki ijodidagi maqollardan foydalanganini ko‘rish mumkin.

“Qanday esh uchrasa, avval razm sol,  
Do‘stingning ko‘nglini yaxshi bilib ol,  
O‘zingni yaqin tut, sevinchli ishga,  
Qayg‘u-alam bo‘lsa, undan uzoq qol”.

Adib Ahmad Yugnakiy asarida ham do‘stni yaxshiroq bilishni, uni yaqinroq olib sinab ko‘rishni ta‘kidlaydi. Adib bu asarida “do‘st” va “dushman”, “oz” va “ko‘p”, “ming” va “bir”, “uzoq” va “yaqin” so‘zlaridan foydalanishi tazod san‘atini yuzaga keltirgan. Kaykovus “Qobusnoma” asarida do‘stlik haqida quyidagi ibratomuz pandlarni aytadi. Muallif imkon qadar bo‘yoqdor fikrlar yo‘lidan boradi. Fikrimizcha, quyidagi satrlarda badiiyat unsurlari balqib ko‘zga tashlanadi: 1. Har kishining do‘sti ko‘p bo‘lsa, ayblari shuncha sir tutiladi va fazilati ko‘payadi. 2. Do‘stlarning do‘stlari ham do‘stlaringdur. 3.





Agar do'sting sening dushmaningni sevsa, bunday do'stdin ehtiyot bo'l. Kaykovus rangin tasvirlardan mohirlik bilan pand-nasihatga o'tadi: 1. Aqlsiz odamlar bilan hargiz do'st bo'lmag'il. 2. Do'stim ko'p deb barchasiga umid bilan ko'ngil bog'lamagil. 3. Hasadchi kishilarga hargiz do'st bo'lmag'il, chunki hasadli kishi do'stlikka loyiq emasdir. 4. Kaykovusning do'stlik haqidagi qarashlari 28-bobda berilgan bo'lib, Kaykovus yashagan zamon uchun g'oyalarning dolzarb tamoyillariga mos ravishda yoritib borilgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Kaykovusning "Qobusnoma" asari – ulkan ma'naviy-axloqiy, ta'limiy-falsafiy, ijtimoiy-irfoniy xazina. "Qobusnoma" garchi fors adabiyotida yaratilgan bo'lsa-da, uning yozilish davri yuqoridagi ikki asar bilan bir vaqtda yozilgan. Ana shunday noyob didaktik asarlarimiz bizning eng katta ko'z qorachig'iday asraydigan boyligimizdir. Ular hech qachon eskirmaydi, inqirozga yuz tutmaydi, yaroqsiz holga kelmaydi. Ular inson yo'lini yoritib turuvchi zanglamaydigan oltin, eskirmaydigan tarix, aqchaga sotilmaydigan g'urur va millat sha'nidir. Unda ilgari surilgan g'oyalar asrlar oshsa hamki o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ularning barcha fazilatlarini sharhlamoq, talqin etmoq, zamon tarbiyasi manfaatlarini yo'lida xizmat qildirmoq uchun jild-jild kitoblar bitmoq kerakdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 2007. 126-bet.
3. Ahmad Yugnakiy. "Hibat ul-haqoyiq". – Toshkent: [www.ziyo.uz.com](http://www.ziyo.uz.com) kutubxonasi, 18-bet.
4. Kaykovus. "Qobusnoma". – Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 111-bet.

